

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SAFARMAXMATOVA ZARRINA NARZULLAYEVNA

**ZAMONAVIY MEDIA OLAMIDA TILNING PAREMIOLOGIK TADQIQI
(gazeta matni misolida)**

10.00.11 –Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor philosophy (Phd) on
philological sciences**

Safarmaxmatova Zarrina Narzullayevna

Zamonaviy media olamida tilning paremiologik tadqiqi (gazeta matni
misolida) 5

Сафармахматова Заррина Нарзуллаевна

Паремиологическое исследование языка в мире современных медий (на
примере газетного текста)..... 25

Safarmakhmatova Zarrina Narzullayevna

Parameological research of language in the modern media world (on the
example of newspaper texts) 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SAFARMAXMATOVA ZARRINA NARZULLAYEVNA

**ZAMONAVIY MEDIA OLAMIDA TILNING PAREMIOLOGIK TADQIQI
(gazeta matni misolida)**

10.00.11 –Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil.1909 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.fdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Teshabayeva Dilfuza Muminovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xoshimov G'anijon Mirzaaxmedovich filologiya fanlari doktori, professor Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot	Namangan davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «30» noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'imoniy ko'chasi, 105. Tel.: (99873) 244-44-29, faks (99873) 244-46-03; e-mail: fardu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (315 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-46-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «16» noyabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «16» noyabr dagi 32 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.M. Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T. Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filol. f. n., professor

A.Mamajanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. JAHUHI tilshunosligida media olamining ekspressivlik tendensiyasi hamda ekspressiv vositalarni tilda aks etish darajasini o'rganishga qaratilgan yo'nalishlar yetakchilik qilmoqda. Aytish kerakki, mediamatnda til birliklarini auditoriya mentaliteti, etnik belgisi, milliy-madaniy qadriyatlari hamda dunyoqarashi bilan bog'liq holda tadqiq etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois bosma media olami lisoniy tasvirini ifodalovchi milliy-madaniy xususiyatlarini ilmiy tadqiqot ishlarining obyekti sifatida o'rganish dolzarbligini kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida ham media olamining lisoniy tasviri tavsifida til vakillarining dunyoni qay tarzda anglashi, milliy-madaniy qarashlari va tafakkurining o'rnini, shuningdek, turli tillardagi paremiyalarni lingvokulturologik jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Media olamida boshqa birliklar qatorida paremiyalarning milliy ruhni ifodalovchi o'ziga xos xususiyatini xalqning milliy tafakkuri, madaniy qarashlari, axborotni idrok etishi va uni til birliklari orqali ifodalashi kabi masalalar bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu esa turli tizimdagi tillarda paremiyalarning turlarini mediamatn ekspressivligini oshiruvchi vosita sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan islohotlarning olib borilishi natijasida milliy qadriyatlarimiz va milliy tilimizni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. «Davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rnini va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularni davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishiga katta e'tibor qaratilmoqda»¹. Buning natijasida milliy tilshunoslikda tilni tadqiq etuvchi yangi paradigmalarni qo'llash orqali media tilining milliy tabiatini yaqqol ko'rsatib beruvchi milliy madaniyatga asoslangan tadqiqotlarni nazariy va amaliy aspektda tahlil qilish, xususan, bosma media tilda paremiyalarni yangi metodologik tamoyil va zamonaviy mezonlar asosida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 29-oktabrdagi «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6097-son farmonlari; Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son «Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 11-martdagi 139-son «O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 20 oktabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-son farmoni. www.lex.uz.

fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda dunyo tilshunosligida media tili muammosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayni mavzuga T.G.Dobrosklonskaya, M.N.Volodina, A.A.Leontyev, T.V.Chernishova, N.V.Chicherina, Ya.N.Zasurskiy, I.M.Kobozeva, A.Abdusaidov, G.X.Bakiyeva, D.M.Teshabayeva, S.D.Sa‘dullayev, I.Ye.Toshaliyev, S.X.Shomaksudova, M.Israil, Sh.S.Safarov, Yo.R.Odilov, Sh.A.Usmonova, M.R.Artikova, S.A.Atkamova² kabi olimlarning ishlari bag‘ishlangan.

Mediamatn nazariyasini shakllantirish va rivojlantirishda T.G.Dobrosklonskaya, D.N.Shmelev, S.I.Bernshteyn, V.G.Kostomarov, A.N.Vasileva, Yu.V.Rojdestvenskiy, G.Ya.Solganik, S.I.Treskova, I.P.Lisakova, G.X. Bakiyeva, D.M.Teshabayeva, M.Isroil³lar salmoqli hissa

²Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов: Опыт исследования современной английской медиаречи. – М.: URSS: 2010. – 288 с.; Володина М.Н. Язык СМИ – особый язык социального взаимодействия // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч.2. – М.: МГУ. 2004. – С. 38; Леонтьев А.А. Психолингвистический анализ языка СМИ // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч.2. – М.: МГУ, 2004. – С. 97; Чернышова Т.В. Фатическое общение в сфере газетной коммуникации / Русский язык: исторические судьбы и современность. Труды и материалы II Международного конгресса исследователей русского языка. – М.: МГУ, 2004. – С. 442-443; Чичерина Н.В. Типология медиатекстов как основа формирования медиаграмотности // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. – 2007. – Вып. 7. Т. 9; Засурский Я.Н. Колонка редактора: медиатекст в контексте конвергенции // Вестник МГУ Серия 10: Журналистика, 2005. – № 2; Кобозева И.М. Лингвопрагматический аспект анализа языка СМИ // Язык СМИ. – М.: Академический проспект, 2008. – С. 221; Abdusaidov A.A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol. f. d-ri... diss. avtoreferati. – T., 2005; Bakiyeva G.X., Teshabayeva D.M. Mediamakonda matn (Monografiya). – T., 2019. – 222 b.; Саъдуллаев С.Д. Язык и стиль средств массовой информации. – Ташкент: Зарқалам, 2002; Toshaliyev I.Ye. va b. OAV tili va uslubi. – T.: Universitet, 2000; Shomaksudova S.X., Israil M.I. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 180 b.; Safarov Sh.S. Lingvistika diskursa / Sh.S.Safarov. – Chelyabinsk; CHGIK, 2018. –316 s.; Odilov Yo.R. Globallashuv davri publitsistikasi tilining taraqqiyoti. – T.: Nodirabegim, 2020. – 140 b.; Usmonova Sh.A. Mediadiskursda gazeta tili tendensiyalari (o‘zbek va ingliz tillari misolida). Filol. fan... falsafa doktori (PhD) dis. – Toshkent. 2021. –147 b.; Artiqova M.R. Mediamatnda pretsedentlik fenomenining lingvomadaniy aspekti (o‘zbek va ispan gazetalari misolida). Filol. fan... falsafa doktori (PhD) dis. – Toshkent. 2022. –157 b. Aktamova S.A. Frazеologizm mediamatnda ifodalash va baholashning uslubiy vositasi sifatida (turli tizimli tillar gazeta matnlari asosida). Filol. fan... falsafa doktori (PhD) dis. – Toshkent. 2022. –153 b.

³Добросклонская Т.Г. Теория и методы медиалингвистики (на материале английского языка). – М., 2000; Шмелев Д.Н. Синтаксическая членность высказывания в современном русском языке. – М.: КомКнига, 2006. – 152 с.; Бернштейн С.И. Язык радио. – М., 1977. – 46 с.; Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. Некоторые особенности языка современной газетной публицистики. – М.: МГУ, 1971. – 267с.; Васильева А.Н. Газетно-публицистический стиль речи: курс лекций по стилистике русского языка. – М.: Русский язык, 1982. – 197 с.; Рождественский Ю.Б. Теория риторики. – М., 1997. – 597с.; Солганик Г.Я. Язык и стиль средств массовой информации и пропаганды. – М.: МГУ, 1980. – 256с.; Трескова С.И. Социолингвистические проблемы массовой коммуникации. – М., 1989, – 178с.; Лысакова И.П. Язык газеты: социолингвистический аспект. – Л.: ЛГУ, 1981. – 104 с.; Bakiyeva G.X., Teshabayeva D.M. Mediamakonda matn. (Monografiya). – T., 2019. – 222 b.; Teshabayeva D.M., Bakiyeva G.X.

qo‘shganlar.

Paremiologik birliklarni lingvistikaning turli aspektlarida o‘rgangan olimlar qatoriga esa A.Dantes, V.Mayder, J.Rey, A.Taylor⁴ kabilar, o‘zbek tilshunoslaridan G‘.Salomov, M.Fozilov, M.To‘ychiyev, M.Hakimov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Sodiqova, M.M.Karomatova, H.S.Karomatov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, B.M. Jo‘rayeva, A.Musoqulov, P.U.Bakirov, G.I.Ergasheva, B.P.Nazarov, D.A.Tosheva, D.S.Turdaliyeva, Sh.Tojiboyev, M.A.Temirova, O.P.Uralova, R.U. Majidovalarni⁵ kiritish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlarda, asosan, mediamatnning umumiy xususiyatlari va diskursiv tahlili, gazeta janrlarining til xususiyatlari o‘rganilgan. Ammo gazeta tilida paremiyalarning o‘rni va roli alohida mavzu sifatida o‘rganilmagan, turli tizimli tillar misolida tahlil qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Tillararo munosabatlar» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bosma media olamida paremiyalar voqealanishining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bosma media tili va paremiologiya tushunchalariga munosabat bildirish;
ekspressivlikni media tilining zamonaviy tendensiyasi sifatida tahlil qilish;

Isroil M. Va boshq. Medialingvistika va tahrir. – Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2019. 553 b.

⁴ Dundes A. On the structure of the Proverb, Mieder W. & Dundes A. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press. 1994. – 352 p.; Proverbs: A Handbook. Meider W. London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.; A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.; Taylor A. Selected Writings on proverbs. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1975. – 203 p.

⁵ Salomov G‘. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. –Toshkent: /Fanlar akademiyasi/ 1961.– 159 b.; Fozilov M. Hikmatli so‘zlar, aforizmlar va maqollar. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1967. – 191 b.; To‘ychiyev M. «Shinelli yillar» romanida xalq maqollari va iboralarning ishlatilishi. O‘zbek frazeologiyasidan tadqiqotlar. SamDPI asarlari. Samarqand. 1971. – 87 b.; Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. –Toshkent: «Fan», 1971. – 176 b.; O‘zbek xalq maqollari: [2 tomlik]. Mas‘ul muharrirlar: Mirzayev T., Sarimsoqov B. Tom 1. – Toshkent, «Fan», 1987. – 368 b.; O‘zbek xalq maqollari: [2tomlik]. Mas‘ul muharrirlar: Mirzayev T., Sarimsoqov B. Tom 2. – Toshkent: «Fan», 1988. – 372 b.; Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati / Tuzuvchi: Sodiqova M. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 76 b.; Proverbs-maqollar-poslovitsi /Tuzuvchilar: Karomatova M., Karomatov H.S. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.; Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma‘nolar maxzani. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.– 448 b.; Jo‘rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqei va ma‘noviy-uslubiy qo‘llanishi: Filol. fanlari nomzodi diss. – Buxoro, 2002. – 136 b.; O‘zbek xalq maqollari/Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. – Toshkent.: «Sharq», 2005. – 253 b.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Доктор филологических наук дисс. – Ташкент, 2007. – 334 с.; Ergasheva G.I. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2011. –164 b.; Nazarov B.P. Bakalavr tayyorlashning quyi bosqichida nemis tilini kommunikativ metodika asosida o‘qitishda maqollardan foydalanish. Pedagogika fanlari nomzodi diss. – Samarqand, 2012. –186 b.; Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Toshkent, 2017. – 151 b.; Turdaliyeva D.S. O‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Farg‘ona, 2018. – 144 b.; Ilm hikmati (Ilm haqidagi hadis, maqol va hikmatli so‘zlar to‘plami) Tuzuvchilar: Tojiboyev SH., Egamberdiyev R. – Toshkent: /Navro‘z/ 2018. – 76 b.; Temirova M.A. O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollari tipologiyasi. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Toshkent, 2018. – 166 b.; Uralova O.P. Ingliz va o‘zbek tillarida “oila” bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss.– Samarqand, 2021.– 144 b.

paremiyalarning turlarini tasniflash, gazeta tilida paremiyalar ma'nosining voqelanishidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlash;

gazeta matnida paremiyalarning transformatsion jarayonini yoritish;

media olamining lisoniy manzarasida frazeologik birlik, maqol, matal, aforizm va qanotli so'zlarning namoyon bo'lishidagi milliy o'ziga xoslikni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyektini davriy nashrlar matnida qo'llanilgan paremiyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini gazeta matni ekspressivligini oshirishda maqol, matal, aforizm, qanotli so'zlar va iboralarning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda, lingvomadaniy tahlil, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil hamda kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mediamatnda paremiologik birliklarning nafaqat kodifikatsiya qilingan til birliklari, balki uning transformatsion va ekspressiv-stilistik xususiyatlarini hisobga olgan holda mediamatnda ekspressivlikni ifodalashda jurnalistning lingvistik mahorati va dunyoqarashining ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lish xususiyati dalillangan;

frazeologik birliklar va paremiyalarning umumiy konsepsiyasi jamiyatning o'ziga xos milliy media kommunikativ jarayoniga xizmat qiluvchi lingvokulturema sifatida jurnalist kommunikativ harakati yoki strategiyasini amalga oshirishda taktik vosita sifatida axborotni saqlovchi, uzatuvchi va qayta ishlovchi kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'lishi isbotlangan;

paremiyalar transformatsiyasining ham ekspressivlik va nutqiy baho bilan bevosita bog'liq xususiyatining nafaqat gazeta janri, balki gazeta turi bilan bog'liqligi ularning stilistik effektlar yaratish imkoniyatini ochish orqali dalillangan;

media olami lisoniy manzarasini paremiyalar orqali o'rganishda ularning mediakommunikatsiya tilining funksional yaxlitlik sifatidagi konstativ, ekspressiv hamda madaniy nutq bahosini tartibga solish imkoniyati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

media olamida paremiyalar lisoniy manzarasining shakllanishida birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga oid xulosalar hamda o'zbek, ingliz va rus tilshunosligining yangi ilmiy-nazariy qarashlari tasniflangan;

gazeta tilida paremiologik birliklarining funksional-semantik guruhlari, transformatsion o'zgarishlari o'rganilgan;

tadqiq qilinayotgan tillarda paremiologik birliklarning gazeta tilidagi universallik jihatlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilayotgan tadqiq usullarining tatbiqi asosida mavzu bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosaga kelingan. Gazeta materiallaridan saralab olingan misollarni tahlil qilish orqali media olam lisoniy manzarasida

paremiyalar ifodalanishining milliy o'ziga xosligiga doir fikrlar umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paremiyalarning lingvomadaniy tamoyillari, turli tillar gazeta matnida paremiyalarni ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari, inson ongi, borliq va til o'rtasidagi munosabatlarning milliy tillarda kuzatiladigan murakkab tabiatining o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati uning natijalaridan «Umumiy tilshunoslik», «Medialingvistika», «Notiqlik mahorati», «Leksikologiya», «Lingvokulturologiya», «Madaniyatlararo muloqot», «Stilistika» kabi fanlar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, ma'ruzalar va maxsus kurslarni tashkil etishda makonni ifodalovchi lisoniy birliklarning o'zbek, ingliz va rus tillaridagi universallik hamda ekspressiv jihatlaridan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bosma media olamida tilning paremiologik fondi va uning o'zbek, rus va ingliz gazeta tilida ifodalanishi hamda milliy o'ziga xosligi muammosining tadqiqi asosida:

mediamatnda paremiologik birliklarning nafaqat kodifikatsiya qilingan til birliklari, balki uning transformatsion va ekspressiv-stilistik xususiyatlarini hisobga olgan holda mediamatnda ekspressivlikni ifodalashda jurnalistning lingvistik mahorati va dunyoqarashining ko'rsatkichi xususiyatlari bilan bog'liqligi kabi ilmiy-nazariy qarashlari va xulosalaridan Turkiyaning «TUMED – international alumni association» tomonidan amalga oshirilgan «Uluslararası Mezunlar Kariyer İnşaası» loyihasida foydalanilgan («TUMED – international alumni association»ning 2022 yil 30 sentabrdagi 42-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi orqali loyiha doirasida o'quv adabiyotlari, tarqatma materiallarini yaratishda va OAVda maqola chop etishda hamda ommaviy auditoriyani keng jalb qilishda o'ziga xos vazifani bajarishga xizmat qilgan;

frazologik birliklar va paremiyalarning umumiy konsepsiyasi jamiyatning o'ziga xos milliy media kommunikativ jarayoniga xizmat qiluvchi lingvokulturema sifatida jurnalist kommunikativ harakati yoki strategiyasini amalga oshirishda taktik vosita sifatida axborotni saqlovchi, uzatuvchi va qayta ishlovchi kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'lishiga oid xulosalardan Istanbul Tijorat universiteti Erasmus + (K-102) «Translation into English and Creating Electronic Fund of Turkic Nations Folklore» amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Istanbul Tijorat universitetining 2022-yil 11-noyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada xorijiy auditoriyaning media olamda paremiologik tadqiqini o'rganishda uning ahamiyati oydinlashgan;

paremiyalar transformatsiyasining ham ekspressivlik va nutqiy baho bilan bevosita bog'liq xususiyatining nafaqat gazeta janri, balki gazeta turi bilan bog'liqligi ularning stilistik effektlar yaratish imkoniyatiga oid xulosalardan «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi nashri «Milliy tiklanish» gazetasi tahririyati tomonidan maqolalarni yaratishda keng foydalanilgan («Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi

nashri «Milliy tiklanish» gazetasi tahririyatining 2022-yil 5-oktabrdagi 111-sonli ma'lumotnomasi). Natijada badiiy-publitsistik maqolalarning sifat darajasi oshirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan; jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, usullari tavsiflangan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Zamonaviy media olamida paremiologik birliklarning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida bosma media tilining lingvistik tadqiqining mazmun va mohiyati, media tilida paremiologik birliklarning tarkibiy-tipologik xususiyatlari, bosma media olamida tilning ekspressivlik tendensiyalari yuzasidan ilmiy-nazariy izlanishlar tadqiq etilgan.

Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida media tili tadqiqiga qiziqish ustunlik qilmoqdaki, bu xususan, globallashuv jarayonlari tufayli inson ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylanganligi bilan belgilanadi.

«Media» – (lotincha «media, medium» – vositachi) dastlabki talqinda ommaviy madaniyatning sinonimi, zamonaviy sharoitda yangi semantik yuklamaga ega bo'lib, madaniy kodlar ishlab chiqariladigan va translyatsiya qilinadigan muhit sifatida ko'rib chiqiladi⁶. Ye.I. Kuznesova zamonaviy media ijtimoiy faoliyat sohasidagi ko'p tabaqali (darajali) o'zaro ta'sirni o'z ichiga olgan umumiy sivilizatsiya jarayoni⁷ deb atagan holda, uni «shaxslar, ijtimoiy guruhlar, institutlarning ma'naviy faoliyatini» o'zgartiradigan qadriyatlar va me'yorlar almashinuvi sifatida tavsiflaydi⁸.

⁶ Кириллова Н.Б. Медиакультура: теория, история, практика. М.: Академический проект; Культура, 2008. – С.11.

⁷ Кузнецова Е.И. Медиальность и медиакультура как факторы динамики социальной среды. Автореф. ...д-ра филос. наук. // 09.00.11. Нижний Новгород, 2010. – С. 3.

⁸ Кузнецова Е.И. Медиальность и медиакультура как факторы динамики социальной среды. Автореф. ...д-ра

Har qanday zamonaviy aloqa sohasida axborot uzatish ijtimoiy-madaniy jarayonlar, madaniyatlar dialogi, akseologik ma'nolar bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida, jamiyat mentalitetiga tobora sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, T.Bushuy va Sh.Safarovlarning fikricha, «Axborotni yaratish va uzatishning asosiy vositasi bo'lgan til tizimining tahlili individ va jamoa faoliyatini, inson tafakkur qobiliyatini tadqiq qilishning muhim qismidir, vositasidir»⁹.

Darhaqiqat, mediamakon ramziy makonlardan biri, ammo u yagona emas. Ramziy makonlarda o'zgaruvchanlik nuqtayi nazaridan ham, makonning paydo bo'lishi va yo'qolishi nuqtayi nazaridan ham yuqori dinamikaga ega. Darhaqiqat, «til muammolari bilan bog'liq bo'lgan deyarli hamma narsa fenomen, favqulodda hodisa sifatida ommaviy axborot vositalari tilida eng to'liq va o'tkir shaklda aks ettirilgan»¹⁰. D.M. Teshabayeva gazeta materiallari yozma manbaa tariqasida har qanday tilning rivojlanishini o'rganish, adabiy til imkoniyatlarini, uning boyligini yuzaga chiqarish va namoyish etish, undan targ'ibot-tashviqot maqsadlarida foydalanish hamda nutq madaniyati va savodxonlikni oshirishda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi¹¹.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, barcha gazeta matnlarida standartlik hamda ekspressivlik tendensiyalari mavjud. Zero, «Gazeta tiliga xos andozaviy birliklar OAV faoliyati mahsuli hisoblanadi. Chunki ular faqat OAV doirasida yaratiladi va qo'llaniladi»¹². OAVda standartlik hamda ekspressivlik bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, gazeta tilining demokratizatsiyasi muayyan darajada sezilganligi ushbu aloqalarning mustahkamlanishiga yordam bermoqda.

Ma'lumki, gazeta-publitsistik uslubining lisoniy mohiyatiga uning oraliq uslubi sifatida qaraladi. Bu esa gazeta tilining janr xususiyatlari bilan bog'liq. Bu o'rinda, Sh.A.Usmonova tomonidan «standart va bo'yoqdorlik, informativlik va emotsionallik qarama-qarshiligi ham publitsistik uslubning konstruktiv belgilari sanaladi va ular turli janrlarda turlicha namoyon bo'ladi» degan fikri o'rinlidir¹³.

Bosma nashrlar uchun matn yaratishning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, bunda «...qoliplilik, andozaviylik jurnalistik faoliyatdagi tezkorlik, mavzular va vaziyatlarning takrorlanuvchanligi hamda davriyligi tufayli yuzaga kelishini inobatga olishi lozim»¹⁴.

Shuni ta'kidlash joizki, paremiya til qatlamida alohida o'rin egallaydi. Uning tasnifi, turlarini bir-biridan farqlash muammosi, shu jumladan, paremiya holati va ko'rinishlarini tahlil qilish muhim masalalar qatoriga kiradi. Tadqiqot paremiologiya medialingvistika yo'nalishida o'rganiladi. Zero, gazeta matnini

филос. наук. // 09.00.11. Нижний Новгород, 2010. – С. 3.

⁹ Bushuy T.A., Safarov SH.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi ilmiy-nashr. – Toshkent. «Fan» nashriyoti. 2007. – B. 177.

¹⁰ Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов (опыт исследования современной английской медиаречи). Изд. 2-е, стереотипное. М.: Едиториал УРСС, 2005. – С.26.

¹¹ Teshabayeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida). Filol.f. d-ri... diss. – Toshkent, 2012. – B. 42.

¹² Teshabayeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida). Filol.f. d-ri... diss. – Toshkent, 2012. – B. 108.

¹³ Usmonova SH.A. Mediadiskursda gazeta tili tendensiyalari (o'zbek va ingliz tillari misolida). Filol. fan... falsafa doktori (PhD) dis. – Toshkent. 2021. – B 42.

¹⁴ Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961. – 109 с.

ekspressivligini oshirishda paremiyalarning o'rnini beqiyosdir. Ma'lumki, paremiya umumadabiy til tarkibida faol qo'llaniladi. Paremiyalar tilshunoslikning muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. «Paremiologiyaning obyekti – paremiya»¹⁵.

Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqiladigan paremiologik birliklar semantik tarkibi jihatidan maqol, matal, frazeologik birliklar, aforizm va qanotli so'zlardir. Ular ajralmas sintaktik va semantik tuzilishni anglatadi.

G.I. Ergasheva o'z tadqiqotida «Frazeologizm va paremiyalarning har biri bir xil vazifani bajaradi, ya'ni har bir madaniyatning o'ziga xos milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega» deb hisoblaydi. Shuningdek, olim, «frazeologik birliklar va paremiyalarning umumiy konsepsiyasi ularning har ikkisi xalqning milliy-madaniy qadriyatlarini yoritish bilan birga ijtimoiy hodisalar jarayonida yuzaga keladigan lingvomadaniy vositalarni ifodalashda va jamiyatning o'ziga xos milliy kommunikativ jarayoni uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi»¹⁶ degan xulosaga keladi.

Biz tadqiqotda paremiyalarning gazeta matnida voqealanishi, auditoriyaning muayyan voqea-hodisalar haqidagi xulosalari, hukmi va tavsiyalarini mujassamlashtirish xususiyatiga va maqol, matal, frazeologik birliklar, aforizm va qanotli so'zlar o'ziga xos badiiy shaklga ega deb hisoblaymiz. Zero, dunyoning media tasviri – bu insonning uzluksiz axboriy faoliyati mahsuli bo'lib, dunyoni bilishda mental faoliyatning uzluksiz obyektlashuvi, OAV matnlarida aktualizatsiya qilish orqali ko'plab insonlar ongi hamda dunyoqarashi yoki olam tasvirini alohida insonlar ongining doimiy eksternilizatsiya qilinishidir¹⁷.

Ekspressivlik tilshunoslikning eng murakkab kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Tilning ekspressivlik kategoriyasi olimlar tomonidan turli jihatlardan o'rganiladi. Bunda semiologik va lingvokulturologik jihatlariga alohida e'tibor beriladi. Publitsistika ham yuqori ekspressivlik bilan ajralib turadigan funksional turlarga tegishli. Ekspressivlikni ifodalash tilning barcha darajalarida mavjud. Ommaviy axborot vositalari matnining ekspressivligiga nutq aktiga murojaat qiluvchining (adresantning) maqsadlari, qabul qiluvchi (adresat)ning dastlabki bilimlari va g'oyalari, shuningdek, kommunikativ aktning lingvistik va ekstralingvistik (ijtimoiy) konteksti ta'sir qiladi. Tadqiqotimiz doirasida o'zbek, ingliz va rus tilidagi ommaviy axborot vositalaridagi paremiyalarni ko'rib chiqdik va publitsistikada ekspressiv vositalar ijtimoiy hayot va siyosiy jarayonlarni tasvirlash uchun ishlatilishi, bu jarayonda yangi ma'lumotlarni yetkazish funksiyasiga ma'lum bir gazeta yoki jurnal matnining asosiy belgilovchi tipologiyasi sifatida qaraladi.

«Mediamatnda paremiyalar kommunikativ strategik vositasi sifatida» deb nomlangan ikkinchi bobda bosma mediamatnda paremiyalar kommunikativ strategik vosita sifatida va bosma mediamatnda paremiyalarning transformatsiyasi tahlilga tortilgan.

¹⁵ Шайхулин Т.А. Русские и арабские паремии с компонентом-наименованием родственных отношений: концептуально-семантический и этнокультурный аспекты. Дис. ... д-ра филол. наук. – Казань, 2012. – С.26.

¹⁶ Ergasheva G.I. Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy tipologik tadqiqi. Filol.fan. nomzodi...dis. – Toshkent, 2011. – B.18.

¹⁷ <https://www.google.com/search>

Gazeta matnining maqsadi – paremiyaning pragmatik funksiyalarini ochib berish, media materiali muallifi tomonidan taklif qilingan kognitiv-diskursiv model orqali ularning ma’nosini amalga oshirishni tasvirlashdan iboratdir. Tadqiqotimiz shuni ko’rsatadiki, paremiyalardan foydalangan holda gazeta matnining kommunikativ harakati aralash turdagi akt bo’lib, unda bir nechta pragmatik funksiyalar bir vaqtning o’zida amalga oshiriladi, bu jarayonda ba’zi funksiyalar eksplisit (aniq, ochiq – oydin), boshqalar esa implisit (latent, aniq ko’rsatilmagan) holda ifodalanadi. Bu yerda gazeta nutqida paremiyalar bilvosita nutqiy harakat ekanligini aytish o’rinlidir.

Maqol va matallar mediamatnda emosiionallik va ekspressiyani oshirishga xizmat qiladi. Ma’lumki, jurnalistlar ijodida maqol va matallar keng qo’llanilib, publitsistik matnning jozibadorligini oshirishga yordam beradi.

Paremiyalar mediamatn yaratishdagi kommunikativ strategik yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin bo’lgan til vositasi bo’lib, ular gazeta matnida axborotni auditoriyaga uzatishning real maqsadini aniqlash imkonini beradi. Ko’p hollarda ulardan salbiy axborotda foydalaniladi: «*Ma’lumki, korrupsiya bilan shug’ullanuvchi odamlar «Yog’ochning bo’shini qurt yeydi doim deganlaridek, bo’sh-bayov, o’ziga ishonchi kam, bilimi sayoz, tajribasi yetarli bo’lmagan odamlarni nishonga oladi...*» («Adolat». 2019, № 24); «*Dono» xalqimiz «Bukrini go’r tuzatadi», deb bejiz aytmaydi. Sh.Zaripovning axloq tuzatish jazosini o’tash jarayonida sakkizinchi jinoyatga qo’l urganidan voqif bo’lgan kishi beixtiyor ana shu naqlni xayolidan o’tkazadi...*» («Adolat». 2019, №38); «*...Biroq o’shanda fuqaro bergan puli o’z hisobraqamiga emas, balki «gazchi ning kissasiga borib tushishini xayoliga ham keltirmagan bo’lsa kerak. «O’rgangan ko’ngil o’rtansa qo’ymas» deganlaridek...*» («Adolat». 2016, № 28) va h.k. Birinchi mediamatnda qo’llanilgan mazkur maqolda «*Yog’ochning bo’shini qurt yeydi doim*» misolida korrupsiya borasida berilgan ma’lumotni yoritishda strategik vosita sifatida qo’llanilgan bo’lib, *doim* ravishidan foydalanish orqali ma’no kuchaytirilgan. «*Bukrini go’r tuzatadi*»; «*O’rgangan ko’ngil o’rtansa qo’ymas*» kabi maqol va matallar matnning kommunikativ vazifasidan kelib chiqib o’rinli ishlatilgan.

Jurnalistik matnlarning interaktivlik va dialogiklik, polemik tabiati ularni parameologik tahlil qilishda muallif va adresat o’rtasidagi munosabatlarining aktuallashuvida o’z ifodasini topadigan diskursiv xususiyatini aks ettiradi. Masalan, «*Dono ota-bobolarimiz «yotib yesang – tegirmondan, yurib yesang – moyjuvozdand baraka aridi» deganlaridek, keyingi ellik yil ichida ulkan ummon kichraydi, toliqdim sochlariga oq indi*» («Hurriyat». 2022, № 14); «*The thousands more delivery trucks on neighborhood streets and tractor trailers on interstate highways are solving one problem by creating another. Time and tide wait for no man*» («Guardian». 08.01.2022); «*The book quotes a maxim from the late VC pioneer Tom Perkins: «If it’s not 10 times different, it’s not different. After dinner sit a while after supper walk a mile*» («Washington Post». 18.09.2017). *Time and tide wait for no man-birlashgan o’zar, birlashmagan to’zar, After dinner sit a while after supper walk a mile-tushlikdan so’ng tin ol, kechgidan so’ng yo’l ol*, degan ma’nolarni anglatadi.

Gazeta matnida matallarni qo'llanilishi ham o'ziga xos xususiyatga ega: «*Allomalar yozib qoldirganidek, qadim zamonlardayoq xalq orasida «Hamal kirdi-amal kirdi» matali mavjud edi*» ushbu misol orqali jurnalist mataldan foydalanish orqali bahor kelishi bilan insonlar, tabiat jonlanishi va yer yuzidagi tirik jon borki, hammasi o'z vazifasi bilan mashg'ul bo'lishini yoritgan.

Kommunikativ strategiya sifatida qo'llanilgan quyidagi maqolga murojaat qilamiz: «*Xalq orasidagi «Ko'rpangga qarab oyoq uzat» matali nojo'ya harakatlardan tiyilishga yoki harakat va faoliyatda ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga amal qilishi talab etadi. U Behbudiyning maqolasida bu ma'nodan tashqari, qo'shimcha ohangdorlik ham bor: «Bank sababi ila yahudiy, armani va boshqalar davlatli bo'lur. Biz bo'lsa bilaks davlatimizdan mulk va obro'mizdan ayrilarmiz. Chunonchi, «ko'rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz» («Hurriyat». 2019, № 11). Ushbu misolda iqtibosdan foydalanish barobarida matalga transformatsion o'zgarish kiritish orqali vaziyatga baho berilgan. Matalni publitsistik uslub elementi sifatida qarab, ma'no jihatdan bitta matal ikki xil ma'noda qo'llanilib, matn mazmunini to'liqroq anglashga yordam bergan. «Ayyuhannos sol! Voy-dod, bedodlar, nohaqlik qilishdi, de. Shunday qilginki, ovozingni **bitta yarimta** eshitsin. «**Beobro'ning noni butun**», axir! Sen hech narsa yo'qotmaysan, qaytanga ishing bitadi, dedim» («Hurriyat». 2019, № 11) va h.k. Bu misolda maqoldan salbiy ma'noda qo'llanilgan.*

Gazeta frazeologizmlari ma'lum bir kommunikativ strategiya sifatida kelib, millatning etnik va madaniy jihatlarining o'ziga xosligini aks ettirar ekan, frazeologizmlarni uch yo'nalishda: *xalqaro, milliy va mahalliy* nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin. Darvoqe, ular millat va uning an'analari haqidagi eng yaxshi manbaa bo'lib, har qanday millatning tarixi va madaniyatini ko'rsatib beradi. Masalan: o'zbek tilida «*Qog'ozning tili bo'lsa edi...*»; («Surxon tongi». 2020, № 23); «*...Geldimurodjonga tinim yo'q edi: «qo'li ish qidirar», xayollari gazetaga mazmun va mohiyat qidirardi*» («Surxon tongi». 2020, № 15); «*Yong'in chiqqani haqidagi qo'ng'iroq uning «kapalagini uchirdi*» («Surxon tongi». 2020. № 1); «*Sayyohlarning «yuragiga yaqin» boraylik...*» («Surxon tongi». 2020. № 2) va h.k.

Ingliz gazetalarida ham shu holat kuzatiladi: «*The tongue has no bones but it is said that it is strong enough to break a heart,... This is nothing new and we all have heard it many times, but a few people actually implement it*». Ushbu misolda muallif «*the tongue has no bones*» «*til suyaksiz*», «*to break a heart*» «*ko'ngilni yaralash*» kabi frazeologik iboralar ta'sirchanlik funksiyasini amalga oshirish maqsadida ishlatilgan. («On Dawn News». 09.11.2016) va h.k. «*The government has been strangely unwilling to push this energy-saving message despite it being consistent with its climate change goals. Perhaps ministers don't want to be accused of «victim blaming» or of telling the public to «suck it up*». Ushbu misolda muallif «*victim blaming*» «*qurbonlik aybdorlari*», «*suck it up*» «*tag'dirga tan berish*») kabi ikki frazeologik iborani qo'llagan. («The Times». 05.09.2022) va h.k.

Siyosiy axborotlarda ham frazeologizmlarning qo'llanilishi o'ziga xos vazifani bajaradi: «*Prezident bilan, oddiy xalq bilan yelkama-yelka turadigan*

lavozimdagi bunday kimsalarning **xurmacha qiliqlari** halol odamlarning **yuragiga xanjardek botadi**. *Afsus, ming afsus...*» («Xalq soʻzi».14.06.18)va h.k.

Gazeta matnlarda xalqaro munosabatlar yoritilgan mavzularda u davlatlararo munosabatlarni ham tavsiflaydi. Masalan: «...*When you don't think before you speak, you're more likely to make badly informed statements and reduce your credibility, let alone hurt someone by «putting your foot in your mouth», even if your intentions were genuinely harmless»* («Cooks Hill Counselling». 08.11.2018). Ushbu misolda «**putting your foot in your mouth**» besh barmoqni ogʻziga tiqish maʼnosini beradi.

Aforizmlar jurnalistik matni strategiyasi sifatida mazmunini boyitish bilan birga mediamatn mazmuniga mos kelishi nuqtayi nazaridan nafaqat taniqli shaxslar tomonidan yaratilgan, balki yoritilayotgan axborotning muhim xususiyatlarini oʻz ichiga olgan jurnalist matn yaratuvchi muallif tomonidan yaratilgan aforizmlar ham kuzatiladi:«**Havodagi turnaga umid bogʻlab, qoʻldagi chumchuqni chiqarib yuborish aqlsizlikdir**» («Bekajon». 2020. № 14); «**Uysiz odam – muallaq odam, uysiz umr – omonat umrdir**». Ingliz tilida: «*But most of us do not yet understand that news is to the mind what sugar is to the body. News is easy to digest. The media feeds us small bites of trivial matter, tidbits that don't really concern our lives and don't require thinking*» («The Guardian». 12.04.2013). Ushbu misoldagi «*news is to the mind what sugar is to the body*» «*Aql uchun yangilik, tana uchun shakardek bir xil taʼsirga ega*», «*News is easy to digest*» «*Yangiliklar oson hazm qilinadi*», «*The media feeds us*» «*OAV bizni oziqlantiradi*» kabi paremlar jurnalistik matn mazmunini boyitish maqsadida jurnalist tomonidan yaratilgan aforizmlardir.

Strategik vositani bajaruvchi qanotli soʻzlar gazeta matnida salmoqli boʻlmasa-da, ularning nom, sarlavha sifatida qoʻllanilishi ham faol kuzatiladi: Oʻzbek tilida: «*Shu joyida, «Insof sari baraka», «Halolikka nima yetsin», «Halollik sotilsa- oʻladi», – daʼvat boʻlganida qanday chiroyli boʻlardi, deb oʻylayman*» («Yangi Oʻzbekiston». 2022. №29); «**Zero, adolat qilichi keskir boʻladi. Bu zalolatning umri qisqa va bir kun haqiqat oʻz oʻrnini topar**» («Hurriya». 2021.2021. №34.) va h.k. Ingliz tilida: «**Imagination rules the world**» «**Tasavvur dunyoni boshqaradi**» («The Guardian». 3.06 2020); «**Enjoy every moment**» (**Har bir daqiqadan zavqlaning**) («The Guardian». 22.10 2020); «**Use it or lose it**» (**Ishlating yoki yoʻqoting**) («Financial Time Europe». 27.01 2022); «**Business is business**», («Karyera +». 2017. № 36) «**Nothing ventured nothing gained**» (**ishlamagan, tishlamaydi**): «**Brands are becoming more like venture capitalists – so what does that mean for startups?**» («The Drum». 7.04.2016) va h.k.

N.G. Bondarenko «zamonaviy gazetalar sarlavhalarida paremiyalar transformatsiyasining asosiy turlarini koʻrib chiqish jarayonida, zamonaviy gazeta matnida tez-tez uchrab turadigan analitik (struktur-semantik) transformatsiya maʼlum bir maqol yoki matalning leksik tarkibi va / yoki grammatik shaklidagi oʻzgarishlarga asoslanadi» degan xulosaga keladi va ularni quyidagi turlarini ajratadi: sintaktik transformasiya, leksik transformatsiya, struktur-semantik

transformatsiya¹⁸.

Uning tasnifi asosida bosma mediamatn tahlilida quyidagi transformatsion o'zgarishlar kuzatildi:

Sintaktik transformatsiya – maqol yoki matalning tasdiq shaklini inkorga aylantirish orqali morfologik o'zgarishlarga uchraydi: o'zbek tilida: «*Lekin elning og'ziga elak tutib bo'larmidi?!*» («elning og'ziga elak tutmoq») («Yoshlik». 2017. № 19); «*Halollik vaksinasi*»ni qayerdan olamiz yohud «*bukrini go'r to'g'rilaydimi*?» («Xalq so'zi». 2020. № 107); «... Chunki inson zotining kattasiyu kichigiga tekkan bedavo «kasallik»mi bu, u hech qachon *oldidan oqqan suvning qadriga yetmaydi.*» («Oila Davrasida». 2017. № 31) va h.k. Ingliz tilida: «*Where one door closes, doesn't another open?*» (bir eshik yopilganda ikkinchisi ochilmaydimi?) («The Washington Post». 27.11.2021); «*Isn't a picture worth a thousand words?*» (ming bor eshitgandan, bir bor ko'rish afzal emasmi?) («The Washington Post». 8.10.2021) va h.k.

Leksik transformatsiya. Leksik transformatsiya – so'z orqali quyidagi manipulyatsiyalar sodir bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan holda ularni ham turlarga ajratiladi:

Eksplikatsiya (tushuntirish, izohlash). Bunda komponent tarkibining kengayishi natijasida ifodaning biror bir elementi yoki ifodaning to'liq konkretizatsiya qilinishi (aniqlik kiritilishi). O'zbek tilida: «... shu sabab «... *tashqi ko'rinishingga qarab, qarshi oladilar, aqlingga qarab, kuzatadilar*» yoki «*tashqi qiyofa kishini yuzaki ta'riflaydi*» singari fikrlarni tez-tez eshitib turamiz» («Yangi O'zbekiston». 2020.№ 102).

Transformatsiya natijasida ma'noni tushunishga hissa qo'shadigan semantik maydonlar aktuallashadi: – implikatsiya. Bunda til birliklari komponentlarining qisqarish usulini qo'llash orqali yangi ekspressiv imkoniyatlarni izlash va til resurslarini tejashning umumiy tendensiyallari bilan bog'lik holda olib boriladi. Ushbu uslub nomuvofiqlik elementini yaratadi, ifodaning mavhumlik darajasini oshiradi. Uning barcha imkoniyatlari asosiy qismda konkretlashtiriladi: Masalan, «*Buzoqning yugurgani*» («Ma'rifat».18.06. 2010); «*Qozonga yaqin yursang*» («Zarafshon». 27.04.2010); «*Mehnat qilib topganing*» («Zarafshon». 24.02.2010); «*Olarda kirar jonim*» («Zarafshon». 20.02.2010); «*Прежде чем что – то сказать*» («Комсомольская правда». 2018. № 41); «*Кому повезло, кому нет*» («Аргументы и факты». 2020. № 36); «*Что посеет?*» («Культура». 2019. № 39); «*Были бы деньги*» («Карьера + ». 2017. № 25); «*Action speaks*» («Financial time». 22.10.2020); «*First think*» («Washington post». 14.05.2020); «*Money Talks*» («The New York Times». 10.02.2021) va h.k. Ko'rib turganimizdek, til birliklari komponentlarini qisqarishi asosan sarlavhalarda kuzatildi.

Struktur-semantik transformatsiya kombinatsiyasi. O'zgarishga uchragan maqol yoki matal yordamida transformning to'g'ridan-to'g'ri yoki ko'chma ma'nosi shakllanadi. Bunda matnda semantik bog'liqlik kuzatilmasligiga qaramasdan, ba'zi birlikning ma'nosini konkretlashtirish holatlari uchrab turadi.

¹⁸ Бондаренко Н.Г. Видоизмененные пословицы и поговорки в заголовках на страницах современных газет // Современная филология: материалы I Междунар. науч. конф. (г. Уфа, апрел 2011 г.). – Уфа: Лето, 2011. – С. 236-239.

Maqollarda transformatsiya hodisasi bo'yicha quyidagi misolni keltirish mumkin: Adolat gazetasining 2017 yil 43 sonida «*Isitmasi oshkor qildi*» sarlavha ostidagi maqolada «*Kasalni yashirsang isitmasi oshkor bo'ladi*» maqolida tushib qoldirish va so'z o'zgartirish yuz bergan: «*isitmasi oshkor qildi*». «*Havoga ko'tarilgan uchoq tushga yaqin Toshkentga qo'ndi. Samolyot bortidan tushgan yo'lovchilar birin-ketin bojxona nazoratidan o'ta boshlashdi...*» («Adolat». 2017. № 43) va h.k.

Kuzatishlar yangi paremiyalar qatorida eng yuqori ko'rsatkich aynan frazeologik birliklarda ekanligini ko'rsatdi. Albatta, bu frazeologiyani yangi variantlarini qo'llash va yaratishdagi qulayliklar bilan bog'liq hodisadir. Masalan, «*Men sharillatib yozib tashlayotgan ko'p mashqlarim «Bo'ri tishiga sera kislotasining ta'siri» qabilidagi dovdirash, to'g'rirog'i «adabiy brak» ekanligini, «yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, buni o'qigan o'quvchi ham hech narsani his qilmasligini» tushundim*» («Yoshlik». 2017 № 19) va h.k.

Quyidagi misollarda esa frazeologik birliklar tarkibiga kiritilgan so'z yoki so'z birikmasi orqali umumtil iborasining ma'nosi konkretlashtirilgan:

«...Bu izzat hurmatdan ko'nglim osmon qadar o'sdi, yuksaldi ... » («Surxon tongi». 2020, № 15).	« ko'nglim osmonga yetdi »
«...So'ng xo'rsinib qo'shib qo'ydi « Afsuski ko'pchilik minbarda quyon, yozuv stolida esa arslon yoki aksincha. Minbarda ham yozuv stolida ham sherdek bo'lishga erishish mumkin »...» («Yangi O'zbekiston». 2020. № 79).	« minbarda quyon » – quyon yurak iborasining yangi ko'rinishi; « yo'zuv stolida esa arslon » qo'rqmas ma'nosida yo'zuv stolida ham sherdek bo'lishga – arslon / sher yurak iborasi
«Abdulla Orif bir bolalar shoiri haqida:« Falanchining og'zini sakkiz yil poyladim, og'zidan bir hikmatli gap chiqmadi », derdilar. Albatta, bular hayot saboqlaridir» («Yoshlik». 2017. №12).	« Falanchining og'zini sakkiz yil poyladim » – «og'iz poylamoq»

Ingliz matbuoti tahlili natijasida ba'zi bir frazeologik birliklar o'zbek tilida maqol ma'nosida kelishi kuzatildi: «...so we should **think twice before we speak**. This is nothing new and we all have heard it many times, but a few people actually implement it». («On Dawn News». 9.09.19). Ushbu misolda «*think twice before we speak*» iborasi esa «yetti o'lchab bir kes» o'zbek maqoliga yaqin keladi.

Ishning «**Medianing lisoniy olamida paremiyalarning milliy-madaniy aspekti**» deb nomlangan uchinchi bobda media olamida paremiyalarning lingvokulturologik aspektida tadqiqi va medianing lisoniy olamida paremiyalarda ekspressivlik va nutqiy madaniy baho masalalar tahlil etilgan.

Ma'lumki, media tilida mavjud bo'lgan paremiyalar o'sha xalqning turmush tarzidan, ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, ular orqali millatning madaniyati

aks etadi. Ushbu bobda biz asosiy urgʻuni bosma mediamatnda oʻzbek, ingliz va rus paremiyalarining lingvokulturologik xususiyatlarini koʻrib chiqib, ularning oʻxshash va farqli tomonlarini koʻrsatishga harakat qilamiz.

«Zamonaviy mediamakon, shubhasiz, lingvokulturologik ijodkorlik va matn tuzish hududi hisoblanadi. Qolaversa, matnlarni maksimal darajada konsentriyalashgan holda tezkor tuzish va yetkazish usuli madaniyatdagi yangi hodisa hisoblanadi. Bunda matn nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki jahon lingvomadaniyatining chuqur xotirasi ifodasi boʻlib xizmat qiladi»¹⁹.

Media tili auditoriyaga axborotni uzatishda asosiy vazifalardan biri tarbiyaviy, maʼnaviy hamda bilim berish vositasi hisoblanib, ijtimoiy ahamiyatli maʼlumotlarni uzatish hamda axborotni haqiqiy voqelikka oid signallarning alohida tizimi sifatida ularni muayyan predmetlar va vaziyatlardan lisoniy vositalar va tushunchalar orqali uzatishga imkon beradi.

Massmedia faoliyati mohiyatan aksiologik, dunyoga nisbatan qarashlar tizimini tarqatishga asoslangan boʻlib, bu tizim qadriyatlarining muayyan jamlamasiga koʻra tuzilgan. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, muayyan madaniy makonda yashovchi odamlar tomonidan yaratilgan chuqur maʼnoli ibora, hikmatli soʻz sifatida maqol madaniy-konnatativdir, yaʼni u jamiyatning oʻziga xos xarakter xususiyatlarini aks ettiradi.

